

NUTQ MADANIYATI VA HOZIRGI KUNDA YOSHLAR NUTQI



Abstract:

Maqolada nutq madaniyati, suhabatlashish odobi, nutqning o'ziga xos sifatlari xususida fikrlar yoritilgan.

Key words:

Nutq madaniyati sifatlari, g'aliz so'zlar, adiblarimiz asarlaridagi nutq bo'yicha fikrlar.

Author of the article:

Qayumova Navruzabonu
Davron qizi

Workspace (Education subject)

Chirchiq Davlat Pedagogika
Universiteti 2-kurs talabasi

KIRISH:

Til millatning mavjudligini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi. Ona tili xalq uchun tarix, bugun va kelajakni belgilab beradi. Til- xalqning, millatning eng buyuk qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli xalqning ozodligi, o'zligini anglab yetishi tilga bog'liq va tilning taraqqiy etishi muhim hisoblanadi.

ASOSIY QISM:

Xalqimiz asrlar davomida dunyo sivilizatsiyasi va umumbashariy qadriyatlarga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Ona tilimiz bo'lmasa, Mahmud Koshg'ariyning „Devoni lug'atit - turk”, Alisher Navoiyning „Xamsa”si, Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma”si, Nodirabegim u Uvaysiynning g'azallari, Cho'lpon va Abdulla Oripovning sh'erlari yaratilmagan bo'lardi. Darhaqiqat tilimiz millat ruhiga aylangan va asrlarga hayot bag'ishlab kelmoqda.

Dunyo miqyosida ayrim tillar muomaladan chiqib bormoqda. Ona tilini asrashdek global muammo yuzaga kelyapti. Asrlar bo'yи sayqallangan, milliy va madaniy qadriyatlarimiz, an'analarimiz singari ona tilimizni bor ko'rku taravoti bilan avlodlarga yetkazishimiz zarur.

Inson hayotida, deyarli har onda nutq madaniyati muhum ahamiyatiga ega. Insonni so'zlashishi, aytayotgan har bir so'zi uning kimligini, olgan tarbiyasi-yu ilmini ham namoyon qiladi. Bizga ma'lumki tilni buzuvchi omillar ya'ni g'aliz so'zlar hozirgi paytda ko'paydi va ba'zi tillarni o'lik tillar qatoriga qo'shilishiga sababchi bo'ldi. Chetdan kirib kelayotgan so'zlarni suhabat jarayonida ko'p qo'llashlik tilning qiymatini keskin tushuradi va yemirib boradi. Bugungi kunda ko'pchilik yoshlar nutq madaniyatiga va ona tiliga befarqlar. Maktabda o'quvchilarga 21-oktabr va tarbiya soatlarida „Til - dil kaliti” mavzularida insholar yozish topshiriqlari beriladi va ba'zi o'quvchilar rus tilidagi so'zlarni aralashtrib yozganligini guvohi bo'lish mumkun. O'quvchilardan nega bu so'zlarni yozishgani so'ralganda, ko'pchiligi bu so'zlarni ona tilimizda qanday atalishni bilmasliklarini aytishadi. Demak tilni asrash oiladan va atrofimizdag'i insonlardan boshlanadi.

Hozirgi kunda telefon va internet tarmoqlari juda ommalashgan. Yoshlar orasida bo'lувчи yozishmalarda qisqartmalar, chet tilidagi so'zlar va afsuski beodob so'zlar dilni hira qiladi. Bu so'zlashish uslubiga ilm kishilari, keksa avlod

«Development of science» international conference

vakillari tushunishi qiyin va ba'zan bu so'zlarni o'zimiz ham tushunishga qiynalamiz. Afsuski bu yoshlar orasida qo'shtirnoq ostidagi „Yoshlar nutqi” bo'lib tarqalmoqda. Bu ona tilimizni qadrini va mohiyatini yo'qolishiga katta sabablardan biri bo'lib qolmoqda. Nutqimizni sof holda saqlash bizning ya'ni yosh avlodning burchidir. Shu o'rinda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning fikrlari juda o'rinnlidir: „O'zbek tili xaqlimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebafo ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir”

XULOSA:

Xulosa sifatida Alisher Navoiy bobomizning ushbu satrlarini keltirishni joiz topdim.

So'z bila kufr ahli musulmon bo'lib

So'z bila hayvon degan inson bo'lib.

Birinchi misra shirin so'zli bo'lishlik haqida bo'lsa ikkinchi misra esa insoniylikning asosiy belgisi so'zligi haqida aytilgan. O'zbek tilimizni asrashlik siz-u bizning qo'llimizda. Tilga hurmatda bo'lish qadr va qiyimatingizni va sizga bo'lgan hurmatni oshiradi.

Bejizga xalqimiz:

„Bir tavakkal buzadi, ming qayg'uning qal'asin,
Bir shirin so'z bitkazar, Ming ko'ngilning yarasin”
deyishmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.J Omonturdiyev, Sh.I Abduraimova. O'zbek nutqi madaniyati va notiqlik san'ati. T,2016
2. Qudratov. T Nutq madaniyati asoslari. T 1993
3. <https://uzkimiyozanoat.uz/oz/manaviyat/tilimiz-boyligimiz/til-haqida>
- 4.<https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-ozbek-tili-xalqimiz-uchun-milliy-ozligimiz-va-mustaqlil-davlatchilik-tim>
- 5.<https://uzkimiyozanoat.uz/oz/manaviyat/tilimiz-boyligimiz/til-haqida>